

SHAVKAT MIRZIYOYEV PREZIDENTLIK MOBAYNIDA O‘ZBEKISTONDA OLIB BORILAYOTGAN STRATEGIK O‘SISHLAR

Otamurodova Durzoda Jumamurod qizi
Urganch Davlat Pedagogika Instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev prezidentlik vakolati mobaynida yurtimizda olib borilayotgan strategik o‘sislar haqida qisqacha ma’lumotlar keltiriladi. Maqolada 2017-2021 – yillarda olib borilgan “Harakatlar strategiyasi” va 2022-2030 -yillarga mo’ljallangan “O‘zbekiston-2030” davlat dasturi haqida qisqacha so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Harakatlar strategiyasi, ta’lim, sud hokimiyati, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi maqsadlari.

Bugungi kunda xalqimiz hayotida ko’plab o’zgarishlar ro’y bermoqda. Buning asosiy sababi qilib, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tashabbusi bilan keng jamoatchilik muhokamasi natijasida amalga oshirilib kelinayotgan strategiyalarni yaqqol misol qilib olishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishga qaratilgan PF-4947-son qarori bilan beshta ustuvor yo’nalish bo’yicha Harakatlar strategiyasi, davlat va jamiyat rivojlanishi istiqbolini strategik rejalashtirish tizimiga sifat jihatdan yangi yondashuvlarni boshlab berdi. O‘zbekistonni rivojlantirishga qaratilgan 2017-2021-yillardagi harakatlar strategiyasi quyidagi 5 ta ustuvor yo’nalishdan iborat edi:

1.Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish : Davlat va jamiyat boshqaruvi tizimini isloh qilish , jamoatchilik nazoratini kuchytirish. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda Oliy majlis , siyosiy partiyalarni ro’lini yanada kuchaytirish ular o’rtasida sog’lom raqobat muhitini shakillantirish. Ijtimoiy-iqtisodiy va sud-huquq islohotlari jarayoniga ta’sirni kuchaytirishga qaratilgan holda qonun ijodkorligi faoliyati sifatini tubdan oshirishga qaratilgan .

2. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo’nalishlari : Sud hokimyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish. Sudyalar va sud apparati xodimlarining mavqeini , moddiy rag’batlantirish va ijtimoiy ta’minot darajasini oshirish , sudlarning moddiy texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan keng ko’lamli ishlarni amalga oshirishga qaratilgan . Shuningdek , yuridik yordam va xizmat ko’rsatish tizimini takomillashtirish , davlat organlarining yuridik hizmati faoliyati samaradorligini

oshirish keyinigi o‘rinlarda advakatura institutini rivojlantirish, jinoyat, fuqorolik, ma‘muriy va xo‘jalik ishlarini ko‘rib chiqishda advokatlarning ro‘lini oshirish, notarial va fuqorolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari tizimini isloh qilishga qaratiladi.

3. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari: Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini saqlab qolish. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish. Sug‘oriladigan yerlarning melioreativ holatini yanada yaxshilash, meliorasiya va irrigatsiya ob‘ektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdorligi yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish. Global iqlim o‘zgarishlari va Orol dengizi qurishining qishloq xo‘jaligi rivojlanishi hamda aholining hayot faoliyatiga salbiy ta‘sirni yumshatish bo‘yicha tizimli chora-tadbir ko‘rishga qaratiladi.

4. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari: Aholi bandligi va real daromadlarni izchil oshirish. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta‘minlangan oilalar sonini aholining daromadlari bo‘yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish. Ta‘lim va fan sohasini rivojlantirish. Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-ekspremental laboratoriyar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish nazarda tutiladi.

5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar: O‘zbekiston respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish. Favqulotda vaziyatlarni oldini olish va batrtaraf etishga qaratilgan tizimlarni yanada takomillashtirish. O‘zbekiston Respublikasining tashqi skyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etishga yo‘naltirilgan ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

2017-2021- yillar mobaynida yuqorida keltirilgan 5 ta ustuvor yo‘nalishlar orqali yurtimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Jumladan ozon qatlami va ekologiyani himoyalash, ekologiya buzilishini oldini olish uchun O‘zbekistonda 2019-yil “Ekologik” partiya tashkil topdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ta‘lim sohasiga katta e‘tibor qaratildi va sud-huquq tizimini isloh qilish va yuridik kadrlar tayyorlash uchun keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Hususan Oliy ta‘lim yurtlariga hujjat topshirish tizimi ham tubdan takomillashtirildi. Axoli ijtimoiy hayotini yaxshilash uchun “Yoshlar daftari”, “Temir daftar” va “Ayollar daftari” tashkil qilinib shu ro‘yhatdagi insonlarga davlat

tomonidan katta subsidiyalar ajratildi. Oliy ta’limda xususiy oliygohlar ro’li yana barqarorlashdi, ular uchun ham keng imkoniyatlar yaratildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan uy-joyga muhtoj fuqorolar uchun namunaviy uy-joylar qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu ishlar aholining farovonligini oshirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan edi. 2017-2021- yillarda amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasi hamda keyinigi islohotlar O‘zbekistonning yangi bosqichdagi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu o‘zgarishlar xalq farovonligi hamda jamiyat taraqqiyotini ta’minlash va zamonaviy davlat barpo etishga qaratilgan ilk strategiyasi harakat edi.

Undan so‘ng 2030-yilgacha mo‘ljallangan “O‘zbekiston-2030” Taraqqiyot strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son Farmoni bilan tasdiqlangan bo‘lib, keyinchalik jahonda yuz berayotgan yangi tendensiyalar, iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlar hamda keng jamoatchilik muhokamalari davomida bildirilgan takliflarni inobatga olgan holda tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmoni bilan yangilangan. Strategiyaning asosiy mohiyati barqaror va inklyuziv taraqqiyotni ta’minlash, aholi farovonligini oshirish, davlatga bo‘lgan jamoatchilik ishonchini mustahkamlash hamda islohotlarni “maqsad — harakat — natija” tamoyili asosida izchil davom ettirishdan iborat. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi mamlakatning 2030-yilgacha bo‘lgan davrdagi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari, maqsadlari va aniq ko‘rsatkichlarini belgilab beruvchi asosiy uzoq muddatli dasturiy hujjat hisoblanadi.

Strategiya beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha 100 ta maqsadni o‘z ichiga oladi:

Birinchidan, har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish; Ya’ni sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish, mehnat qilish va tadbirkorlik qilish imkoniyatlarini kengaytirish, insonni o‘z qobiliyatiga mos ish topishi yoki o‘z faoliyatini boshlashi uchun imkon berish. sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoyani ta’minlash, insonning sog‘lom va xavfsiz hayot kechirishi uchun sharoit yaratish. Huquq va erkinliklarni himoya qilish, har bir inson o‘z fikrini bildirishi, tashabbus ko‘rsatishi va rivojlanishi uchun imkon berish. iqtidor va istedodlarni qo‘llab quvvatlash – yoshlar, olimlar, sportchilar va ijodkorlarning qobiliyatini rivojlantirishga yordam berish nazarda tutiladi.

Ikkinchidan, barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash; bu yo‘nalishda mamlakat iqtisodiyotini uzoq muddat davomida izchil rivojlantirish va buning natijasida xalqning turmush darajasini yaxshilash nazarda tutiladi. Bularga yangi ish o‘rnini yaratish va aholi bandligini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirish hisoblanadi.

Uchinchidan, suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish; bunga misol qilib quyidagilarni sanab o‘tsam maqsadga muvofiq bo‘ladi. Suvdan samarali va tejamkor foydalanish, suv manbalarini ifloslanishdan himoya qilish, atrof-muhitni asrash, o‘rmon va yashil hududlarni ko‘paytirish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurash va kelajak avlod uchun sog‘lom tabiatni saqlab qolishni aytishim mumkin.

To‘rtinchidan, qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish; ushbu tamoyilda davlat faoliyatida qonunlarga qat‘iy rioya qilish, fuqorolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda davlat idoralarining xalqqa xizmat qilishi nazarda tutilgan. Davlat xizmatchilarining xalqqa xizmat qilishi aholi murojaatlarini tinglash va muommolarini hal etishga yo‘naltirilgan boshqaruvni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat boshqaruvida halollikni ta‘minlash kabi maqsadli yo‘nalishlarni ham ushbu tamoyilimizga qo‘shsak bo‘ladi.

Beshinchidan, “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish. Ushbu tamoyil asosida davlatimiz juda murakkab va siyosiy jarayonni amalga oshiradi. Jumladan davlatning tinchlikni saqlash, xavfsizlikni mustahkamlash va boshqa mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan siyosatni davom ettirish, tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash, boshqa davlatlar bilan tinch va o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish, nizo chiqqudek bo‘lsa uni tinch yo‘l bilan hal qilish, xalqaro hamkorlikda faol ishtirok etish kabi mavzular haqida so‘z olib boriladi.

Strategiyada inson kapitalini rivojlantirish, sifatli ta‘lim, zamonaviy sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, iqtisodiy o‘sish, ekologik barqarorlik, samarali davlat boshqaruvi, adolat, ochiqlik, xavfsizlik va konstruktiv tashqi siyosat masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining muhim xususiyatlaridan biri uning aniq o‘lchanadigan natijalarga yo‘naltirilganidir. Har bir ustuvor yo‘nalish aniq maqsadli ko‘rsatkichlar, mas‘ul ijrochilar va amalga oshirish mexanizmlari bilan bog‘langan bo‘lib, bu islohotlar ijrosini muntazam va shaffof monitoring qilish imkonini beradi. Ushbu Strategiya orqali O‘zbekiston zamonaviy, raqobatbardosh va inson manfaatlariga yo‘naltirilgan davlatni barpo etish, har bir fuqaro uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda islohotlarning amaliy natijalari odamlar hayotida namoyon bo‘lishini ta‘minlashni maqsad qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Shavkat Mirziyoyev prezidentligi davrida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan strategik islohotlar mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. 2017–2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi hamda 2022–2030-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan muhim dasturiy hujjatlar hisoblanadi. Mazkur strategiyalar doirasida davlat boshqaruvi takomillashtirildi, qonun ustuvorligi va sud-huquq

tizimi isloh qilindi, iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarini yaxshilash, ekologik muammolarni hal etish hamda xavfsizlik va tinchlikni ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda ushbu islohotlarning asosiy maqsadi — inson manfaatlarini ta’minlash, fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini yaratish, zamonaviy va raqobatbardosh davlat barpo etishdan iborat. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi esa bu yo‘nalishlarni yanada davom ettirib, mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot maqsadlarini belgilab bermoqda. Umuman olganda, amalga oshirilayotgan strategik o‘zgarishlar O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi, xalq farovonligining oshishi va xalqaro maydondagi nufuzining mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Foydalinlgan adabiyotlar

1. <https://uz.wikipedia.org>
2. <https://lex.uz>
3. <https://lex.uz/docs/-3107036> 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasi to‘g‘risida
4. <https://lex.uz/docs/6600413> “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni “O‘zbekiston -2030” strategiyasi to‘g‘risida .